



NURALI QOBUL IJODIDA ENA VA BOLA OBRAZI

Muallif: To‘ychiyev Abdunabi Xudoyberdiyevich¹

Affiliyatsiya: Guliston davlat universiteti o‘qituvchisi, Filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)¹

DOI: <https://doi.org/10.5281/zenodo.20195831>

ANNOTATSIYA

Nurali Qobul asarlari bilan o‘zbek adabiyoti rivoji va jamiyat taraqqiyotiga o‘z hissasini qo‘shgan ijodkordir. Mazkur maqolada ushbu adibning “Unutilgan sohillar”, “Johillik va qotillik”, “Maymunlar mamlakati yoxud yovvoyilar orasida” kabi asarlari badiiy tahlil qilinadi. Ularda yozuvchining qahramon yaratish mahorati tadqiq etilib, ayni asarlarning zamonaviy o‘zbek adabiyotida tutgan o‘rni haqida mulohazalar yuritiladi.

Kalit so‘zlar: Nurali Qobul, syujet, badiiyat, qahramon, talqin, tahlil.

Atoqli adib Nurali Qobul asarlari bilan o‘zbek adabiyoti rivoji va jamiyat taraqqiyotiga o‘z hissasini qo‘shgan ijodkordir. Yozuvchi suhbatlarida, yozgan bitiklarida, hikoya va qissalarida enasi Shahzoda Ibrohim Sulton qizini ehtirom bilan eslaydi. *“Adabiyotga kirib kelish haqida gap ketar ekan, bolalikdan meni tarbiyalagan, yuragimga ezgulik urug‘larini sochgan enam Shahzoda Ibrohim qizining porloq xotirasi oldida abadul-abad qarzdorman va bosh egaman”*, - deydi adib [1:9]. Balki, shu sabablidir, to‘qqiz hikoyasida (“Dunyotepaning devi”, “Sariq qizlar”, “Savob”, “Ena”, “Enam, men va bedana”, “Ozor”, “Oq kaptarlar”, “Umr sohillari”, “Kechikkan turnalar”) enasi Shahzoda momoni ehtirom bilan eslaydi. “Yangi qor yoqqan kun”, “Sangzor” qissalari ona va bola muloqoti asosiga qurilgan. “Tubsiz osmon” (“Sening bolalik osmoning”) qissasini esa yozuvchi enasining xotirasiga bag‘ishlaydi. Bu hikoya va qissalarida Ena obrazi yozuvchining o‘z fikrlarini bayon etishida qo‘l keladi. Mazkur asarlarning deyarli barchasida Ena obrazi aynan bir xarakter sifatida tasvirlangan. Ena obrazi donishmand, mehribon, kamtarin, haqiqatparvar ona sifatida tasvirlashiga qaramay, muallif har bir asarida uning yana bir o‘ziga xos xarakterini ochib beradi.

Muallifning bolalik yillarida boshidan kechirgan voqealar keyinchalik yaratgan bir qator hikoya va qissalarida qaysidir darajada o‘z aksini topgan. Bu turkumdagi asarlarning ba‘zilarida (“Dunyotepaning devi”, “Savob”, “Ozor”, “Odamlar”, “Ena”, “Yelkadagi yuk”, “Oq kaptarlar”, “Umr sohillari”, “Kechikkan turnalar”) bolakayning ismi ochiqdanmagan bo‘lsa, yana ba‘zilarida esa turli ismlar (“Sariq qizlar”, “Enam, men va bedana” hikoyalarida Doniyor, “Do‘stmurod bobo”da Rahmonberdi, “Yangi qor yoqqan kun”da Donavoy, “Sangzor”da Bozorvoy, “Tubsiz osmon”da Norbo‘ta) bilan nomlangan. Mazkur asarlarning aksariyati avtobiografik xususiyatga ega bo‘lib, muallifning badiiy to‘qimasi bilan boyitilgan.

Yozuvchining “Savob” hikoyasini mehnatkash va mushfiq onaga bag‘ishlangan sara asarlar turkumiga kiritish mumkin. “Savob” hikoyasini o‘qish jarayonida “ko‘kay”



degan so'zni uchratdim [2:45]. Ena qiziquvchan nevarasining " - Ena, xudo qayerda?" deb bexosdan berilgan savoliga dastlab " - Qayerda bo'lardi, qosh-qovog'ingning o'rtasida", - deb javob beradi. Yana qayta so'ralgach " - Xudo xudo-da! U har bir odamning ko'kayida bo'ladi",-deydi.

Adibning "Unutilgan sohillar" roman-monologi qayta nashri "Insonlik sharafi va adolatga sadoqat" nomli o'ngso'z bilan to'ldirilgan. Deyarli har asarida epigraf qo'yadigan yozuvchi bu safar ham odatini kanda qilmagan:

"-Ena, xudo qayerda?"

"-Ko'kayimda, qosh-qovog'imizdi o'rtasida, balam". (Enam bilan suhbatdan).

Garchi, "ko'kay" adabiy tilda ham ishlatilsa-da, ma'nosi biroz mavhum bo'lgan bu so'zni lug'atlardan izlab ko'rdim. Bir qancha izohli lug'atlardan topolmay, nihoyat "Zominning til qomusi" kitobida bu so'zni uchratdim. Qomusda "ko'kay" so'ziga "ko'ngil, ruhiyat" deb izoh berilgan [3:23]. Yuqoridagi savol-javobni yana bir bor o'qidim. Naqadar ajoyib falsafa!

"Yangi qor yoqqan kun" qissasida ena ayb ish qilgan nevarasini *"Hah, ilohim, uyingga bug'doy to'lsin"*, -deya koyiydi. Ena umri bino bo'lib birovga biror og'iz nojo'ya gap aytmagan edi:

"-Ena, nega siz ayamga o'xshab hech kimni koyimaysiz?-so'radim bir kun enamdan.

-He-yey, bolam-yey! Nima qilaman gunohimni ko'paytirib? Aqlim kirgunga qadar qilgan gunohlarim ham yetar. Odamning ikki yelkasida ikki farishta o'tiradi. O'ng tomondagi farishta insonning umr bo'yi qilgan savob ishlarini, chap tomondagi farishta esa gunohlarini yozib boradi. Dunyoda eng yomon gunoh – odamning odamga ozor berishi" [4:12].

Xalq orasida bor bo'lgan, ehtimol o'zimiz ham eshitgan, eshitgan bo'lishimiz mumkin bo'lgan bu falsafa Nurali Qobul ijodida yana "Ena" hikoyasida ham uchraydi [5:30]. "Ena" hikoyasida bola Quljonboyning burnini urib qonatadi. Enasining aytishicha, qon-yorug'lik. Lekin, baribir odamning odamga ozor berishi - dunyoda eng yomon gunoh. Bu gunoh ishini chap tomonidagi gunoh ishlarini yozadigan farishta "temir daftari"ga yozib ulgurgan. Enasining aytishicha, gunoh qilgan odam gunohini yuvish uchun savob ish qilishi kerak. "Gunohimni qanday yuvsam bo'ladi? - deganida, enasi "Bilmayman. Qo'lingdan kelganicha odamlarga yordam ber, yaxshilik qil, tushundingmi?", - deydi.

Kimga qay tartibda yaxshilik qilishni, shu sabab gunohini yuvmoqchi bo'lgan ko'ngli hijil bola xayoliga kelgan o'ydin o'rnidan turib ketadi. Qishloq chekkasidagi qashshoq, yolg'iz qariyaga yaxshilik qilishni o'ylaydi. Shu niyatda otasining deyarli yangi bo'lgan etigini olib borib beradi. To'g'ri, bola etikni hech kimdan so'ramay, hatto, enasiga ham aytmay olib bordi. Chunki, enasi "Nega otangning uydagi etigini so'ramasdan birovga olib borib berding?" deyishi mumkin. Lekin, bolaning fikricha, u yomon ish qilmadi. Otasining bir necha etiklari bor, qariya esa doim kalishda yuradi. Bu uning hayotidagi o'z aqli bilan qilgan birinchi savob ishi edi. Kechga ko'ngli xotirjam bo'lib yotar ekan, ertaga qishloqda yolg'iz yashaydigan Mayram momoga yaxshilik qilishni diliga tugib qo'yadi.

“Yangi qor yoqqan kun” qissasida esa bola tengdoshlari bilan Zargul momoning handalakzoriga o’g’irlikka tushadi. Rajab kaltaning qistoviga ko’ra, bola Zargul momoni chalg’itish uchun uning chaylasiga boradi. Zargul momo bolani yaxshi kutib oladi, hol-ahvol so’raydi, ketishida enasiga handalak berib yuboradi. Bunday holatda bolaning vijdoni qiynaladi, unda o’zidan nafratlanish hissi paydo bo’ladi.

Enasidan farishtalar haqidagi gapni eshitgan bola kimga qanday qilib yaxshilik qilishni o’ylab ko’ngli hijil yotganida, hayoliga kelgan o’ydin o’rnidan turib ketadi. Enasiga bildirmay dadasining bir-ikki kiyilgan deyarli yangi etigini hech kimi yo’q Yorbek boboga olib borib beradi. Qanday minnatdorchilik bildirishni bilmagan Yorbek boboning beixtiyor ko’zi namlanadi. Qilgan yaxshiligidan, shu bahona bilib-bilmay qilgan gunohining yuvilishidan umidvor bolaning ko’ngli yorishadi.

Bolaning bolalarcha qilgan ishidan odamning ko’ngli ko’tariladi. Qissada bola shusiz ham hammaga handalak beradigan Zargul momoning handalakzoriga o’g’irlikka tushgani uchun o’zini aybdor biladi, kechirolmaydi. Hikoyada esa masxara qilgani uchun Quljonboyning burnini qonatgan bola ham o’zini aybdor biladi. Har ikki holatda ham bola enasidan eshitgan farishtalar haqidagi gapdan so’ng qilgan gunohini odamlarga yaxshilik bilan yuvmoqchi bo’ladi. Donishmand Enaning ta’limoti natijasida hali mushtday bola gunoh ish qilishdan qo’rqadi. Bolalarcha bilib-bilmay qilgan “gunoh”larini yuvish uchun odamlarga yaxshilik istaydi. Bu asarlardagi Ena siymosi bolasini to’g’irlikka yo’llovchi, gunoh ishlardan qaytaruvchi, xudodan qo’rquvchi xalqimizning bir tipik vakilidir.

Asarlardagi bola obrazining yana bir xarakterli xususiyati shundaki, beixtiyor bolalarcha o’yingaroqlik natijasida qilingan ayb ishlardan keyin bolada pushaymonlik hissining paydo bo’lishidir. U voqeadan keyin tahlil qiladi, o’ylanadi, o’z-o’zidan norozi bo’ladi. Qilgan nojo’ya harakatini oqlash uchun enasi aytganidek, odamlarga yaxshilik qilishni istaydi.

Nurali Qobul asarlarini o’qiyotgan kitobxon oldingi asarida uchratgan manzaralar, joylar, voqea-hodisalar va tanish qiyofalarga yana duch keladi. Oldingi asaridagi obraz keyingi asarida ham uchraydi. Bunga sabab, yuqorida ta’kidlaganimizdek, bola qatnashgan asarlarining aksariyati avtobiografik xarakterda ekanligidir. Biz muallif bilan bog’langanimizda farishtalar haqidagi gaplar hamda etik bilan bog’liq voqea hayotida haqiqatdan bo’lganligi, keyinchalik shu voqealar yozgan asarida aks etganini aytdi.

Barcha yaxshi asarlar iste’dod hamda mashaqqatli ijodiy mehnat natijasidir. Yozuvchi laboratoriyasi bilan tanishganimizda, bu asarlarni qiyosiy o’rganish orqali ular o’rtasidagi o’zaro bog’liqlik va mutanosiblikni sezishimiz mumkin. Bu asarlarda muallif tomonidan ilgari surilgan va butun asar bo’ylab qayta-qayta uqtirilgan asosiy fikr, yetakchi g’oya, asar pafosi - ezgulikdir.

Nurali Qobul ijodida Ena bilan bola obrazi anchayin katta mavzu hisoblanadi. Albatta, bir maqolada hammasiga to’xtalish, fikr yuritish imkoniyatdan tashqari ish. Bu asarlarning har biri bir olam. Biz bugun faqat umumiy bir nazar soldik, xolos.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO’YXATI

1. Xushboq J. Yuragimning surati. -T.: “Yangi asr avlodi”, 2018.
2. Nurali Qobul. Maymunlar mamlakati yoxud yovvoyilar orasida. - T.: “IJOD-PRESS”, 2017.
3. Nurali Qobul. Unutilgan sohillar. -T.: “DIZAYN-PRESS”, 2013.

4. To'ychiboyev B., Qashqirli Q. Zominning til qomusi. -T.: "Akademnashr", 2012.
5. Nurali Qobul. Johillik va qotillik -T.: "IJOD-PRESS", 2017.
6. Nurali Kabul. Babushka. Rasskaz // -T.: Pioner Vostoka, №39, 1987. S.3